
“Hokim va yoshlar” uchrashuvi o‘tkazildi

Bugun Qo‘shtepa tumani hokimi Anvarjon Abdullayev hamda sektor rahbarlari yoshlar faoliyati, qiziqish va takliflari bilan tanishish, ularni qiynayotgan muammolarni aniqlash hamda hal qilish maqsadida yoshlar bilan uchrashdi.

Yoshlar agentligi tuman bo‘limida o‘tkazilgan navbatdagi uchrashuvda 10 nafar yoshlarning murojaatlari eshitilib, ularning barchasi tegishli tartibda ro‘yxatga olindi. Yechimi topilgan murojaatlar joyida hal etildi va ayrim murojaatlar huquqiy maslahat va tushunchalar bilan qoniqtirildi.

2024-09-11 19:55:24